



KO‘CHIRMA GAPLI QO‘SHMA GAPLARNING O‘ZLASHTIRMA GAPGA AYLANTIRILISHI

Bahramov Fazliddin
Ishtixon tumani 36-maktab
Katta o‘qituvchisi

Ilm go‘yo cheksiz ummonga o‘xshaydi.Undan qay darajada bahra olmoq esa o‘zimizga bog‘liq.Yana shunisi borki, suv faqat chanqagan, unga tashna odamlar uchungina lazzatli bo‘ladi.Ilm ham shunday. Ummonning sarhadi cheksiz; ilmni o‘rganganing sari uning ham tubiga yetib bo‘lmaydi.

Biz shu ilm ummonidan bir tomchisi – Ko‘chirma gaplar xususida so‘z yuritmoqchimiz. Ko‘chirma gaplar, ularni o‘zlashtirma gapga aylantirish mavzulari 9- sinf ona tili darsligiga kiritilgan.

“So‘zlovchi ba‘zan o‘z nutqida birovning gapini aynan keltiradi.Birovning aynan keltirilgan gapi ko‘chirma gap, so‘zlovchining gapi esa muallif gapi deyiladi”

Muallif gapi va ko‘chirma gapdan tashkil topgan gapga ko‘chirma gapli qo‘shma gap deyiladi. Masalan:

Payg‘ambardan bir kishi so‘rabdi:”Ey, Rasululloh, men kimni hurmat qilay?”

Gapning:Payg‘ambardan bir kishi so‘rabdi , qismi muallif gapi; “Ey, Rasululloh, men kimni hurmat qilay?” gapi ko‘chirma gap hisoblanadi.

Ya‘ni: Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar doim ikki qismdan – muallif gapi va ko‘chirma gapdan tashkil topadi.Yozma nutqda ko‘chirma gap doim qo‘shirnoq ichida beriladi.

Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirib, o‘zlashtirma gapga aylantirish mumkin. Masalan:

Donodan so‘radilar:”Ey, donishmand,kishi uchun eng yaxshi narsa nima?”

Gapini: Donishmanddan kishi uchun eng yaxshi narsa nima ekanligini so‘radilar,deb o‘zlashtirma gapga aylantirish mumkin.

9-sinf ona tili darsligining 2019-yilgi nashri, 176-mashqida berilgan gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirish o‘quvchilarga biroz mavhumlik qilmoqda. Shu mashqdagi gaplarni tahlil qilib ko‘raylik.

1-gap.” **Rahmat, ona qizim”,- dedi muharrir mehri tovlanib.** Bu gapdagi “rahmat”- so‘z-gap.So‘z gaplarni biz o‘zlashtirma gapga aynan olib kirolmaymiz.ma`nosini ifodalovchi so‘z orqali ifodalaymiz. Ya`ni “rahmat”ni o‘rniga “minnatdorchilik bildirmoq”ni kiritamiz. “Ona qizim” – undalma bo‘lib



kelgan.Undalmalar jo'nalish yoki chiqish kelishigidagi to'ldiruvchilarga aylantiriladi.Demakki: **Muharrir mehri tovlanib, qizga minnatdorchilik bildirdi.**

2-gap.” **Ke, picha dam ol, chirog'im,toza charchabsan**”,-dedi bobom. Gapdagi undalma bo'lib kelgan “chirog'im” so'zi ko'chma ma'noda, nevarasini erkalash uchun ishlatilgan.Demak: **Bobo nevarasini chaqirib,uningjuda charchaganini, biroz dam olishini aytdi.**

“Ke” so'zining o'rniga uning ma'nodoshi chaqirmoq fe'lini kiritamiz.

3-gap.**Kampir oyoq ostida o'sgan o'tdan yulib,kiyik tomon yura boshladi: “Ma, jonivor, ma!”**

Ko'chirma gapdagi “ma” so'zining o'rniga uning ma'nosi – bermoq so'zini kiritamiz.

Kampir oyoq ostida o'sgan o'tdan yulib, kiyik tomon yura boshladi va unga berdi.

4-gap.”**Shoshmang, Ahmadjon**,”- dedi yigit. Gapdagi “shoshmang” so'zi nutqimizda “toxtatish” ma'nosini ifodalaydi.

Yigit Ahmadjonni to'xtatdi.Ahmadjon- undalma,. Bu yerda undalma o'zlashtirma gapga aylantirilganda tushum kelishigidagi to'ldiruvchiga aylangan.

5-gap.**Xalil bobo nevarasiga girgitton bo'lib :**”Hoy ,bolam,senga nima bo'ldi?A?Nima qildi, toychog'ima?”- der edi.

Ko'chirma gap tarkibida kelgan “toychog'im” so'zi ko'chma ma'noda kelgan.Bunday so'zlar o'zlashtirma gapga aylantirilganda : **Xalil bobo nevarasiga girgitton bo'lib unga nima bo'lganligini, nima qilganligini so'radi,** tarzida yoziladi.

6-gap. “ **Zap yigit ekansizda, Tursunalijon. Barakalla, barakalla.**”- dedi u.

Olqishlamoq ma'nosidagi barakalla so'zining ma'nosini gapga kiritamiz:

U Tursunalijonning (zap so'zining o'rniga uning boshqa ma'nodoshini qo'yamiz) **yaxshi yigit ekanligini aytib, maqtadi.**

Xulosa shuki, ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirganimizda faqat shaklga emas, ma'nosiga ko'proq urg'u bersak bu mavzularni o'quvchilarga muammolarsiz , oson o'rgatishga muvaffaq bo'lamiz.